

## TOSHKENT VILOYATI ANGREN SHAHRI HUDUDIDAGI YIRIK KIMYOVIY ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARI VA ULARNING AHAMIYATI

**Xoshimxanova M.A.**

*TDTU Olmaliq filiali dotsenti*

**Shamsuddinov L.O**

**Samatov S.O**

**Jadilova D**

*<sup>2</sup>Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali talabarlari*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Toshkent viloyatining mahsus industrial zonasi hisoblangan Angren shahrining asosiy yirik kimyoviy ishlab chiqarish korxonalari, ularning ishlab chiqarish turlari va korxonalarining sanoatdagi ahamiyati o'rganildi.*

**Kalit so'zlar.** *Industrial, kaolin, ko'mir, metallurgiya, rezinotexnika, kauchuk, polimer, elastomer, shina, mineral, birikma.*

**Kirish qismi.** Hozirgi rivojlangan davrda Respublikamizda juda ko'p turdagi ishlab chiqarish zavod-korxonalari qurilgan va yana yangilari barpo etilmoqda. Bunga misol Toshkent viloyatining asosiy 2 katta ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan Olmaliq va Angren shaharlarini misol qilishimiz mumkin. Chunki bu ikki shaharda deyarli barcha turdagi ishlab chiqarish turlari mavjud.

**Asosiy qism.** Toshkent viloyati Angren shahri, O'zbekistonning kimyo va metallurgiya sohasidagi eng muhim markazlardan biridir. Chunki shaharning ichida juda ko'pgina ishlab chiqarish korxonalari, sexlari va katta zavodlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Farmoniga binoan 2012 yilning aprel oyida tashkil etilgan "Angren" maxsus industrial zonasiga sarflangan investitsiyalarning hajmi 5 yil mobaynida 182,5 mln. AQSh dollaridan ortib ketgan.

Shu qisqa muddat davomida "Angren" maxsus industrial zonasida "Angren quvur zavodi", "EGL-NUR" MChJ, "Angren Shakar", "Uz Shindong Silicon", "Uz-Prista Recycling" kabi 11ta korxonalar faoliyati yo'lga qo'yilib, o'z mahsulotlarini ishlab chiqarmoqda.

2016 yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 618,4 mlrd. so'mni, eksport qilingan mahsulotlar hamji esa 6,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, deyiladi "Angren" MIZ xabarida. Unga ko'ra, 2016 yilning oxirigacha "Angren" MIZda 7 ta ishlab chiqarish korxonalari foydalanishga topshiriladi. Bu yerda tashkil qilingan korxonalariga, kiritilgan sarmoyaga qarab 3 yildan 7 yilga qadar soliq



imtiyozlari beriladi. 300 mingdan 3 mln dollarga qadar sarmoya kiritganlarga 3 yilgacha, 3 – 10 mln dollar sarmoya kiritganlarga – 5 yil, 10 mln dollardan ortiq sarmoya kiritganlarga esa – 7 yil davomida soliq imtiyozlari taqdim etiladi.

Bu shaharda bir nechta kimyo va metallurgiya zavodlari faoliyat yuritadi va turli xildagi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Quyidagi kimyo va metallurgik ishlab chiqarish sohalari Toshkent viloyati Angren shahrida ko'p ishlab chiqariladigan mahsulotlarni o'z ichiga oladi:

#### *Angren oltin saralash fabrikasi*

Olmaliq kon-metallurgiya kombinati Angren oltin saralash fabrikasi, O'zbekistonning Olmaliq shahrida joylashgan bir metallurgik sanoat korxonasi hisoblanadi. Bu fabrika, oltin rudalarini saralash, qayta ishlash va yuqori sifatli oltin mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan faoliyat yuritadi.

Oltin saralash fabrikasi, qimmatli metallarni ajratish va oltin mineralini rudasidan tashqariga ajratish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu jarayonlarda kimyoviy va metallurgik usullar ishlatiladi. Oltin rudalarining saralash jarayonida, qurilma va uskunalar orqali rudalardagi oltin minerali ajratiladi. So'nggi bosqichlarda oltin rudalarining tozalash va qayta ishlash jarayonlari amalga oshiriladi. Bu jarayonlarda kimyoviy reaksiyalardan foydalaniladi va mineraldan oltin birikmalar holatida hosil qilib ajratiladi.



#### *Angren birinchi rezinotexnika zavodi*

Rezinotexnika zavodi rezina tarkibli materiallar ishlab chiqarish uchun xususiy ishlab chiqarish qurollariga ega bo'lgan korxonalardan biri hisoblanadi. Bu zavod elastomer materiallarining ishlab chiqarilishini amalga oshirish, uni qayta ishlash va qo'llashga tayyorlashning muhim qismini o'z ichiga oladi.

Rezinotexnika zavodida kauchuk tarkibli materiallar ishlab chiqarish uchun murakkab texnologik jarayonlar ishlatiladi. Bu jarayonlar orasida kauchuk va polimerlarining tayyorlanishi, materiallarni qayta ishlash, preslash shakllantirish jarayonlari, tarkibiy



va



modifikatsiya va boshqa jarayonlardan foydalaniladi.

Rezinotexnika zavodlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar 2 yo'nalishdagi ko'p tarmoqli mahsulotlar hisoblanadi. Bu ikki yo'nalishlardan biri rezina lentolari bo'lsa, ikkinchi tur asosiy mahsulot esa qishloq xo'jaligi va yengil avtomobillar shinalarini ishlab chiqarish hisoblanadi. Bu ishlab chiqarilgan mahsulotlarning foydalanish sohalari: avtomobilsozlik, qishloq xo'jaligi, sement ishlab chiqarish, minerallarni qayta ishlash korxonalarini, yengil sanoat korxonalarini va hokazo.

#### *Angren ko'mir koni*

Toshkent viloyati Ohangaron vodiysidagi ko'mir koni Qurama va Chotqol tog'lari etagida joylashgan. Geologik kon qidiruv ishlari 1934-yildan boshlangan bo'lib, dastlabki shaxta 1940-yilda ishga tushirilgan. Ko'mirli havzaning maydoni qariyb 70 km<sup>2</sup>. Aniqlangan zahirasi 860 m chuqurlikkacha boradi va 1,9 mlrd. tonnaga boradi (O'rta Osiyodagi



barcha ko'mir zahirasi qariyb 1/4 qismi). Ko'mir yura yotqiziqlari orasida joylashgan bo'lib, uning qatlami juda serbar, qalinligi yer yuzasiga nisbatan 20 m dan chuqurlikdan 130 m gacha yetadi. Ko'mir B<sub>2</sub> markasiga mansub bo'lib, yonish issiqligi 13,9 MJ/kg ni tashkil etadi. Ko'mir asosan ochiq usulda (2,5 mln. t) va qisman yer ostidan (0,5 mln. t) qazib olinadi. Bundan tashqari „Yerostigaz“ stansiyasida ko'mir gazga aylantirilib, yiliga 50 mln. m<sup>3</sup> gaz ishlab chiqariladi. Ko'mir bilan birga kaolin ham qazib olinadi. Qatlamlar orasida portlandsement, flyus, burt hamda kanalizatsiya quvurlari ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo'ladigan asbest kabi jinslar ko'p hisoblanadi.

#### *Angren kaolin zavodi*

Boyitilgan kaolin olish bo'yicha O'rta Osiyoda yagona fabrika Toshkent tumani Angren shahrida joylashgan.

Korxonaga kaolinni ho'l usul bilan boyitish uchun texnologik liniyaga ega, loyihani ishlab chiqish chogida kaolin ishlab chiqarish bo'yicha jahon amaliyotining eng zamonaviy yutuqlari hisobga olingan. Xom ashyoni yetkazib beruvchi birlamchi boyitilmagan kaolinning alohida qazib olinishini ta'minlaydi, bu esa korxonaga faqat sifatli boyitilgan kaolin ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. Yuqori sifat, texnologik ko'rsatkichlarning barqarorligini texnologik jarayonning barcha doiralarida ekspress-





tahlillar o'tkazish uchun eng yangi sinov asboblari bilan jihozlangan fizik-kimyoviy laboratoriya asosidagi nazorat tizimi kafolatlaydi.

“Angren Kaolin” MCHJ korxonasi quyidagi mahsulotlarni ishlab chiqaradi:

- AKF- 78 kaolini, kaolin paxtasi, yuqori sifatli keramika, kabel, plastmassa, elektr texnikasi (izolatorlar), lok-bo'yoq, parfumeriya mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun xom ashyo ko'rinishida, shuningdek qog'oz, koagulyantlar ishlab chiqarishda to'ldirgich sifatida ishlatiladi.

- Keramika mahsulotlari va chinni uchun AKS-30 kaolini. U sanitar-texnik keramika, devorlarni ichkaridan va tashqaridan qoplash uchun taxtachalar, o'tga chidamli materiallar, keramikadan esdalik buyumlari va oq loy gishtini ishlab chiqarishda xom ashyo ko'rinishida ishlatiladi.

AKT-10 kaolini maishiy kimyoning tozalash vositalari, sun'iy qatron, yelim, rezina texnika mahsulotlari, kabel mahsulotlari va plastmassalarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladi.

### **XULOSA**

Ushbu maqolani yozish davomida tajribamiz davomida ishlab chiqqan zamonaviy pedagogik ta'lim texnologiyasini mukammallashtirishga yordam beradigan dasturlar haqida ma'lumotlar berib o'tdik. Bunda aynan ustoz va talabalar tomonidan eng yaxshisi deb topilgan iSpring dasturi va uning yondosh dastrulari haqida ma'lumot berib o'tdik.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOT VA SAYTLAR RO'YHATI:**

1. I. Shamshidinov. “Noorganik moddalar va mineral o'g'itlar texnologiyasi” Toshkent «Iqtisod-moliya» 2014 yil
2. T.A. Otaqo'ziyev, Q.A. Ahmerov, S.M. Turobjonov. “Umumiy kimyoviy texnologiya” Toshkent «Niso poligraf» 2013 yil
3. A.A.Ismatov, T.A.Otaqo'ziev, N.P.Ismoilov, F.M.Mirzaev. Noorganik moddalar kimyoviy texnologiyasi. Toshkent. O'zbekiston
4. Q.Gafurov. «Kimyoviy texnologiyaning nazariy asoslari». Toshkent. 2007yil
5. <https://kun.uz/>
6. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

